



## INFORMATIKADA AXBOROT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

**Po'latova Nodira**

*Jondor tuman 2-son Kasb-hunar maktabining Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Axborot taqdim qilinishiga ko'ra: yozuvli, raqamli, grafikli, ovozli va videoyozuvli kabi turlarga bo'linadi. Axborot vazifasiga ko'ra: ommaviy, maxsus, maxfiy va shaxsiy kabi turlarga ajratiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatlarning rivojlanish bosqichi ularning o'sha davrning fan texnika taraqqiyoti yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni jamlab amaliyatga tatbiq etishi bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda axborotni tayyorlash, qayta ishslash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohaga aylandi. Ushbu maqolada axborot xavfsizligi tushunchasi va uning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Axborot, ommaviy, maxsus, maxfiy va shaxsiy, axborot erkinligi prinsiplari.

Axborot o'zi nima? Axborot arabcha "xabar" so'zidan olingan bo'lib, "darak", "ma'lumot", "ovoza" degan ma'nolarni anglatadi. Shu jumladan, axborot deganda biror kimsa, narsa yoki hodisa haqida darak, ma'lumot berish, bildirish, uni muayyan vositalar yordamida yetkazish yoki ovoza qilish tushuniladi. Filologiya fanlari nomzodi Xurshid Do'stmuhammadning fikrlariga ko'ra: "Atrofimizda, ko'z o'ngimizda mavjud narsalar, hatto insonning yurish turishi, xatti-harakati, ko'z qarashlari, qiyofasi, gap so'zlari, hatto jim turishi ham axborotdir" umumiylaz nazariya orqali tushuntiradigan bo'sak, axborot bu - ko'z bilan ko'rib qulqoq bilan tinglashimiz, nafas olgandagi har xil hidrlarni ajrata olishimiz, tana a'zolarimiz orqali issiq, sovuqni his qilishimiz umuman atrofimizni o'rab turgan narsalarni anglashimiz axborotdir. Axborot taqdim qilinishiga ko'ra: yozuvli, raqamli, grafikli, ovozli va videoyozuvli kabi turlarga bo'linadi. Axborot vazifasiga ko'ra: ommaviy, maxsus, maxfiy va shaxsiy kabi turlarga ajratiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatlarning rivojlanish bosqichi ularning o'sha davrning fan texnika taraqqiyoti yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni jamlab amaliyatga tatbiq etishi bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda axborotni tayyorlash, qayta ishslash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohaga aylandi. Shuningdek, axborot sohasini salmoqli o'sishi dastlabki kompyuterlar yaratilgan davrga to'g'ri keladi. Jamiatni tarmoqli axborotlashtirish harakati kompyuterlashtirish tizimlarini shakllanishiga olib keldi hamda "axborotlashgan jamiyat tushunchasi paydo bo'ldi. Axborotlashgan jamiyat - axborot tehnologiyalarining rivojlanishlik darajasi nuqtai nazaridan asosiy talablarga javob beruvchi jamiyat. Bunday davlatda asosiy faoliyati axborot bilan ishslashdan iborat shaxslar jamiyat a'zolarining 50% dan yuqori bo'lishi hamda gazeta, radio, televiedeniye, kompyuter, Internet va uyali telefonlar bilan ta'minlanganlar soni turli idoralar va aholining asosiy qismini tashkil etishi zarur.



Jamiyatning axboratlashuvi – bu ma'lum bir davlat yoki jamiyatda axborot tehnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida sodir bo'ladigan holat[4]. Bu jamiyatda kishilar orasidagi munosabatlarda axborot omili yetakchilik qiladi, hamda hal qiluvchi kuchga aylanadi. Axborotlashgan jamiyatda mutlaqo axborot oqimi erkindir. Shu erkin axborot oqimi tufayli jamiyatda turli xil ma'naviy tahdidlar kirib kelaveradi hamda har bir mamlakatning milliy mafkurasiga kuchli zarar yetkazadi.

Milliy mafkura tushunchasi- millatning ijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, uning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi hamda falsafiy harakatga keltiruvchi falsafiy, siyosiy huquqiy, diniy, ahloqiy va estetik qarashlarining butun bir tizimiga aytildi[5]. Axborot bu kuch. Axborot orqali xalqning ongi, madaniyati, mentalitetiga, hukumatning axboriy, siyosiy tuzulmalariga deskturiktiv ta'sir o'tkazish mumkin. Axboriy xuruj haqiqiy qurolli urushga qo'yilgan birinchi qadamdir. Axborot xavfsizligini ta'minlashning bugungi kunda dolzarbligi shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat "axboriy jamiyat" deb atalmish yangi bir davrga qadam qo'yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta'minlash har doimgidan ham zarur. Axborotlashtirish - axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui. Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishslash, toplash, saqlash va tarqatish jarayoni. Axborot tizimi (informatsion sistema)-informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot tehnologiyalari majmui. Axborot resurslari muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar ba'zasi kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar jamlanmasi hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy axborot - ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruuhlar, siyosiy tashkilotlar o'rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o'z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar yig'indisi. Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Batafsilligi, asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda ommaviy axborot vositalari muhim ro'l o'ynaydi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot iste'mol madaniyati insonning muayyan ma'naviy-ahloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarni o'zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko'rsatishini anglatadi. Axborot iste'moli madaniyati (O'zMU tadqiqotchisi U.Qo'shaev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tushuncha) axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o'zida ifoda etadi. Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyatni rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga



asoslangan sifati holatini tavsiflovchi tushuncha. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni "bosqichlar almashinuvi" nuqtai nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchi – "axborot sektori" yuzaga kelishi bilan bog'laydilar. Ularning fikriga ko'ra, industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib beradi. Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bugungi kunga kelib jamiyatning axborotlashuvini yaxshi va yomon jihatlarga ajratish mumkin.

Jamiyatni axborotlashuvi natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar:

- Siyosatda gegimonlikka intilayotgan davlatlar axborot siyosatida o'zining ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqdi hamda o'z madaniyatini targ'ib qilish maqsadida axborot manbalaridan qurol sifatida foydalana boshladi;
- Turli tipdag'i madaniyatlar til, hamda OAV kanallari orqali kirib kela boshladi natijada mamlakatlarning tarixiy ildizlari yemirila boshladi;
- Ichki va tashqi tahdidlardan davlat, jamiyat va shaxsning iqtisodiy mafaatlarini milliy va xalqaro darajada himoya qilish xavfi yuzaga keladi.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan ajralib turadi. Bugungi axborot davrida har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning tafakkuri va siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib kelmoqda. Jahonda kechayotgan globalashuv va integratsiya, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarida axborotning ahamiyati, xususan, axborot erkinligi va ochiqligi masalasi shaxs, jamiyat va davlat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy axborot tizimining shakllanganligi har qanday mamlakatning salohiyati va taraqqiyotini belgilovchi omil bo'lib sanalmoqda. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi"da axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash masalasiga yuksak e'tibor bilan qaralib, mamlakatimizni siyosiy modernizatsiya jarayonining bugungi bosqichida axborot sohasini isloh qilish borasida ustuvor vazifalarni belgilab berib, soha qonunchiligini yanada takomillashtirish borasida asosiy g'oya va takliflarini bayon etishi bilan birga, ularni hayotga tatbiq qilish mexanizmlari ham aniq va ravshan ko'rsatib berilgani diqqatga sazovordir. Axborot sohasini rivojlantirish, uni jahon talablari darajasiga ko'tarish borasida mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilib, mamlakatimizda har kimning fikrlash va so'z erkinligi, axborotni olish, izlash va tarqatish huquqlari, ommaviy axborot vositalarining erkinligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalari bilan mustahkamlanib, ushbu konstitutsiyaviy normalarni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarini yanada demokratlashtirish va liberalallashtirish, olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning ochiqligi va oshkorligini ta'minlashda ularning faolligini oshirish, media makonga ilg'or axborot-kommunikatsiya tehnologiyalarini bevosita joriy etishga qaratilgan:



- “Ommaviy axborot vositalari to‘g’risida”;
- “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g’risida”;
- “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g’risida”;
- “Noshirlik faoliyati to‘g’risida”, “Telekommunikatsiyalar to‘g’risida”;

XULOSA. “Axborotlashtirish to‘g’risida”gi va boshqa jami 20 dan ortiq axborot sohasida qonunlar, 50 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va 300 dan ortiq idoraviy qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Mustaqillik yillarida yaratilgan bunday huquqiy maydon ommaviy axborot vositalariga o‘z vazifalarini samarali bajarish hamda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarga, kommunikatsiya vositalarining rivojlanish darajasiga yetishish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. “Axborotlashtirish to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni asosida axborotlashtirish — bu yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot tehnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat — bu globallashgan ijtimoiy jarayon bo‘lib, uning o‘ziga hos asosiy xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida faoliyatning ustuvor turi sifatida zamonaviy kommunikatsiya tehnologiyalari hamda axborot almashuvining xilma-xil vositalari asosida amalga oshirilayotgan axborotni izlash, yig’ish, olish, tadqiq etish, uzatish hamda tarqatishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 4.J. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
2. Yaxshilikov J.Y., Muhammedov N.E, “Milliy g‘oya va mafkura”, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti. 2015.
3. Mo‘minov F. Barotov SH. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Toshkent. JIDUDA nashr etildi. 2013.